

SURXON RAQSI RUHINING SHIJOATLI PARVOZI

Nazarova Eliza

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi

3-kurs talabasi

*Ilmiy rahbar: **Matluba Murodova***

Qadimiy Termiz tuprog‘idan taralayotgan doira zarbi shunchaki musiqa ohang emas, balki asrlar qa’ridan kelayotgan mardlik sadosidir. Surxon raqs maktabi – bu tog‘lar bag‘ridagi erkinlik, jaydari xalqimizning botiniy shijoati va o‘zbekona g‘ururning harakatlardagi in’ikosidir. Har bir qadamda yer zirqiraydi. Bu maktab o‘zining betakror jozibasi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin egallagan jonli merosdir. O‘zbek milliy raqs san’ati rang-barang maktablarga boy, biroq ular orasida Surxon – Qashqadaryo raqs uslubi o‘zining o‘zgachaligi, mardona harakatlari va etnik ildizlariga sodiqligi bilan alohida ajralib turadi. Surxon raqs maktabi – inson va tabiat uyg‘unligini, baxshiyona an’analar va xalq o‘yinlarining raqsga ko‘chgan shaklidir. Surxon raqs maktabi – bu shunchaki jismoniy harakatlar majmuasi emas, balki asrlar davomida shakllangan mardlik va shon – sharaf falsafasidir. Bu raqslarda Amudaryo mavjlari kabi jo‘shqinlik va Boysun cho‘qqilari kabi metin iroda mujassam. O‘zbek milliy raqs san’atining durdonasi hisoblangan Surxon maktabi o‘zining “qars” va “rez” usullari, olovli burilishlari bilan ajralib turadi. U xalqimizning botiniy quvvatini tashqi harakatlarga ko‘chira olgan yagona san’at yo‘nalishidir. Surxon raqsarini kuzatgan kishi unda sahro kengliklarini, tog‘ bag‘ridagi lolaqizg‘aldoqlar raqsini va qadimiy baxshiyona ohanglarning vizual in’ikosini ko‘radi. Har bir harakat – tabiat bilan uyg‘unlik sadosidir. Ushbu raqs maktabi ajdodlarimizning jangovar ruhi va tantanali quvonchlarini bugungi kunga yetkazib beruvchi jonli ko‘prik vazifasini o‘taydi. U yosh avlod qalbida milliy g‘urur va ona zaminga muhabbat tuyg‘ularini anglatadi. Raqs ijrochisining har bir harakati, yuz-ko‘zidagi qat’iyat va milliy liboslardagi kashtalar uyg‘unligi ko‘z o‘ngimizda qadimiy miniatyuralar jonlanayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Bu – ko‘z bilan ko‘rib, qalb bilan his qilinadigan simfoniya. Surxon raqs maktabining ildizlari insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan Surxon vohasining ibtidoiy madaniyatiga borib taqaladi. Bu shunchaki sahna raqsi emas, balki voha xalqining hayot tarzi, e’tiqodi va tabiat bilan chambarchas bog‘liq jarayondir. O‘zbekistonning janubida joylashgan Surxon vohasi qadim-qadimdan insoniyatning beshigi bo‘lgan hududlaridan biri ekanligiga Boysun tumani Machay qishlog‘idagi tosh asriga mansub manbalar, Zarautsoy darasidagi qoyalarga ibtidoiy odamlar tomonidan chizilgan suratlar guvohlik beradi[1,11-b].

Surxon diyori qadimiy Buyuk ipak yo‘lining shimolni janub bilan sharqni g‘arb bilan bog‘lab turgan serqatnov bekati bo‘lgani uchun bu hududda yashagan xalqlar qo‘shni

davlatlar, qo‘shni xalqlar bilan doimiy aloqada bo‘lib keldi. Natijada, Surxon vohasida o‘ziga xos madaniyat paydo bo‘ldi. Ammo o‘zbek raqs maktablari–Farg‘ona, Buxoro, Xorazm maktablari haqida ko‘p kitoblarda ma‘lumotlar keltirilgan, bu maktablar rivojlantirilgan, lekin Surxon raqs maktabi haqida hech qayerda ma‘lumot keltirilmagan. 2001-yilda nashr etilgan L.Avdeyevaning “O‘zbek milliy raqsi tarixidan” den nomlangan kitobida ham Surxon vohasi raqs uslubi haqida qisqagina umumiy gaplar yozilgan va Boysun tumanida bir necha ibtidoiy o‘yinlar tilga olingan xolos.

Surxon vohasining raqs san‘ati o‘ta milliyligi tufayli sobiq sovet mafkurasidagi mahalliy rahbarlar tomonidan “eskilik sarqiti” sifatida qabul qilingani ham Surxondaryo raqs uslubining rivojiga xalaqit berdi. Surxon vohasi raqslari tog‘lik Boysun tumanidagi “Shalola” ashula va raqs ansambli 1975-yilda Polsha Respublikasining Zakopane shahrida bo‘lib o‘tgan VIII jahon tog‘lik o‘lkalari folklori festivalida qatnashib, ”Kumush bolta” sovrindori bo‘lganidan keyingina san‘at ahlining e‘tiborini tortgandek bo‘ldi. Vaholangki, hozirgi kunga kelib surxoncha harakatlar respublikamizdagi aksariyat folklor ansambllari harakatlarida keragidan ortiq foydalanilishi, uning chegaralanishini ham taqozo etib qoldi[1,14-b].

Bu ham Surxon vohasi san‘atini o‘rganish ishlarida katta turtki bo‘ldi. Surxon raqs maktabi o‘zining shiddatli, jo‘shqin va energetikaga boy harakatlari bilan boshqa hududiy maktablardan keskin ajralib turadi. Bu raqsar asosan tog‘li va keng hududlarning tabiati, odamlarning mardona harakateri o‘zida aks etiradi. Surxon raqs maktabida yelka, gavda harakatlari, qo‘l va barmoqlar, oyoq harakatlari juda muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Surxondaryo raqs maktabining liboslari o‘zining yorqin ranglari, qadimiy ramzlari va boshqa hududlardan ajralib turuvchi o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Bu liboslar nafaqat kiyim, balki vohaning qadimiy tarixi va xalq amaliy san‘atining ko‘zgusidir. Surxon vohasining an‘anaviy raqslaridan:”Kadi” raqsi, So‘zana” raqsi, ”Qoshiq” raqsi, “Chiroq” raqsi, “Tovoq” raqsi,” Duchava” raqsi, “Chorqars” raqsi, “Ufo-jaqala” raqsi, ”Yaqu-yaqu”raqsi, “Chavandozlar” raqsi shu kabi milliy an‘analarga boy professional raqslari mavjud. Surxon vohasidagi kiyimlarida qizil, to‘q qizil, sariq ranglar (olovrang) ustunlik qiladi. Bu ranglar quyosh, olov vs hayotiy quvvatni anglatadi. Ko‘pincha shoyi, atlas va bo‘z matolaridan foydalaniladi. Ayniqsa, matolardagi yo‘l-yo‘l gullar (lolacha) va chizma naqshlar Surxon uslubiga xosdir. Liboslarning eng muhim qismi bu badiiy kashtachilikdir. Surxon raqs kiyimlari, ayniqsa, xotin-qizlar nimchalari va ko‘ylaklari “iroqi” va “yo‘rma” usubidagi kashtalar bilan bezatiladi. “Lola”, “bodongul” va geometrik shakllar ko‘p uchraydi. Surxon raqqosalarining bosh kiyimi bo‘lmish “ Boysun iroqisi” o‘zining zich tikilgan gullari va rang-barangligi bilan butun dunyoga mashhur. Raqqosaning to‘liq obrazi mursak yoki nimcha: ko‘ylak ustidan kiyiladigan, yenglari kalta yoki yengsiz usti kiyim va nimchalar ko‘pincha qora yoki to‘q rangli baxmaldan tikilib, usti oltinrang yoki yorqin iplar bilan kashtalangan bo‘ladi. Keng ko‘ylak : odatda uzun va keng bichimda bo‘lib, raqs harakatlari davomida erkinlik beradi, oyoq kiyimlari charmdan tikilgan, uchi biroz qayrilgan nafis kovushlar yoki

maxsilardir. Surxon raqsida metal taqinchoqlarning o‘rni katta. Raqqosa harakatlanganda taqinchoqlar o‘ziga xos musiqiy sado chiqaradi[2,33-b].

Surxon raqs maktabining musiqiy asosi o‘zining qadimiy ildizlari, murakkab ritmik tuzilishi va tabiiy tovushlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu musiqiy meros nafaqat raqsga jo‘shqinlik beradi, balki voha xalqning ichki dunyosini ham namoyon etadi. Surxon raqs musiqasining o‘ziga xos jihatlari doira(doira zarblari ko‘pincha raqqosaning yelka qoqishi yoki oyoq harakatlari bilan sinxron tarzda ijro etiladi), sibizg‘a, g‘ajir nay(cho‘ponlar musiqasidan kirib kelgan bu cholg‘ular raqsga o‘ziga xos “yovvoyi” va tabiiy joziba beradi), do‘mbira(Surxon baxshichilik san‘atining asosi bo‘lgan do‘mbira raqs musiqasida ham o‘zining vizilovchi va darmonbaxsh ovozi bilan ishtirok etadi), chang, g‘ijjak va chanqovuz musiqaga o‘zgacha joziba beradi.

Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy hududidagi Boysuntog‘ tizmasining yonbag‘rida joylashgan Boysun tumani respublikamizning qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Boysun qadimdan o‘zining san‘ati bilan ham mashhur bo‘lib kelgan. XX asrning boshlarida yashagan boysunlik san‘atkorlar Hoji Bolta raqqosning ijro etgan raqslari, Orzigul ismli raqqosa ayolning betakror ijrolari, hofiz Usta Qurbon Davlatmamat o‘g‘li va Mulla Juma Dutoriylarning qo‘shiqlari haqida Boysun aholisi orasida hozirgacha afsonalar yuradi. Boysun tumanida san‘atning ota merosligi, davomiyligi hozirgacha uzilmagan va “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli buning tirik misolidir. 1929-yilda Boysun tumanidagi san‘atkorlar uyushmasi tashkil etilib, respublikamizda birinchilar qatorida “Ko‘k ko‘ylakchilar” nomli xalq teatri tashkil etganlar. Bu teatr Ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar faoliyat olib borgan. Boysun san‘atini mashhur qilgan hofiz Inoyat G‘ofurov, kamon ustasi Akram Oripov, surnay va nayning tengsiz ustasi Rajab mehtar Doniyev, hofiz va dutor sozandasi Zikrulla Umarov, doyrachilar Ziyodulla Abdullayev, Po‘lat Tog‘ayevlar Surxondaryoning san‘atiga o‘z davrida hissalarini qo‘shishgan. 1986-yilda Boysun tuman markaziy madaniyat uyi qoshida “Boysun” folklor-etnografik ansambli tuzildi. Unga Holiq Xursandov badiiy rahbar, Habib Umarov musiqa rahbari etib tayinlandilar. “Boysun” folklor-etnografik ansamblining tashkil topishi Surxon vohasi san‘atining hayotida katta voqea bo‘ldi. Tinimsiz mehnat natijasida “Boysun” jahon arenasiga chiqdi. U ijodiy safar bilan Afg‘oniston, Buyuk Britaniya, Turkiya, Fransiya, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston davlatlarida bo‘lib, o‘zbek folklor san‘atini namoyish qildi va tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo‘ldi. “Boysun“ ansambli ijodiy faoliyati to‘g‘risida bir necha filmlar yaratildi. 2001-yilda “YUNESKO” tashkilotining Boysun tumani xalq og‘zaki ijodiyoti “Jahon nomoddiy boyliklari durdonasi hududi” deb e‘lon qilishida “Boysun” folklor-etnografik ansamblining xizmati beqiyos edi. “YUNESKO” tashkiloti ishtirokida Boysun tumanida xalqaro “Boysun bahori” ochiq folklor festivali tashkil etildi[2,20-b].

Surxon raqsi– shunchaki harakatlar majmui emas, balki voha xalqining olovli tabiati, mardona ruhiyati va ming yillik madaniy ildizlarini o‘zida mujassam etgan jonli merosdir. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Surxon raqsi bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki

jahon sahnalarida ham o‘zining betakrorligi bilan e’tirof etilmoqda. U xalq o‘yinlaridan boshlanib, professional sahna xoreografiyasigacha ko‘tarilgan bo‘lib, kelajak avlodlar uchun milliy o‘zlikni anglatuvchi eng yorqin san’at turlaridan biri bo‘lib qoladi. Surxon raqsi- bu vaqt sinovidan o‘tib, o‘zining milliy jozibasini yo‘qotmagan, aksincha, yillar o‘tgan sayin yangicha sayqal topayotgan o‘zbek madaniyatining bebaho xazinasidir. Ushbu maktabni asrab-avaylash va targ‘ib qilish, nafaqat raqs san’atini boyitadi, balki O‘zbekistonning boy madaniy xilma- xilligini dunyoga ko‘rsatishning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saitova E. O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti (Surxon raqsi maktabi). –Toshkent: Fan ziyosi, 2022.
2. Qurbonova Sh., Xursandov X. Surxon raqs maktabi. –Toshkent, 2010.
3. ”Jahon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma’naviy madaniyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaiy konferensiya materiallari. –Termiz, 2019.
4. Ashirov A., Qayumov A. Boysun aholisining an’anaviy turmush tarzi: o‘tmishda va hozirda.// Boysun tarixi va an’analari. –T., 2005.